

TAYYORLOV GURUXI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA  
TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Abdullaeva Marjona*

*Rayimova Umida*

*Elmurodova Dilroz*

*Nizomiy nomli TDPU Maktabgacha ta'lim  
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra talabalari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash va ta'limiy jarayonlarni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar haqida batafsil bayon etilgan. Maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun mo'ljallangan metodik vositalar va usullar yoritib berilgan

**Аннотация:** В статье подробно описаны методы, используемые при качественной подготовке дошкольников к школьному обучению и организации учебного процесса. Выделены методические средства и методы, предназначенные для педагогов дошкольного образования.

**Annotation:** This article describes in detail the methods used in the quality preparation of preschool children for school education and the organization of educational processes. Methodological tools and methods intended for preschool education pedagogues are highlighted

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi davr shaxsning har tomonlama rivojlanishida eng intensiv davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ulkan imkoniyatlarini amalga oshirishda maksimal samaradorlikka faqat tarbiyada qo'llaniladigan metod va shakllar mazkur yoshning psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq bo'lgandagina erishish mumkin. Shundan kelib chiqib, bolalar psixikasining rivojlanishi bolalarni maktab ta'limiga tayorlash bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan tayorlov guruxi bolalarini maktab ta'limiga tayorlash muammosi dolzarb hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayorlash masalasini sharq allomalari, o'zbek va rus psixologlari tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, sharq allomalari o'z ilmiy merosida shaxsning har tomonlama aqlan, jismonan va ma'nan kamol toptirish masalasi atroflicha o'rganganlar. Yirik sharq allomalaridan A.Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Dovoniy, Kaykovus asarlarida va boshqalar tomonidan jamiyatda insonlar va ularni tarbiyalash yo'llari, ta'lim tarbiya berish orqali shaxs ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasining dolzarbligi bilan belgilanadi.

Xorij psixolog olimlaridan D.B.Elkonin, V.V.Davidov, E.E.Kravsova singari tadqiqotchilar bolalarini maktab ta'limiga tayorlash muammolari bilan shug'ullangan.

O'zbek psixologlaridan F.Xabibullayev, F.Narimanova tomonidan bolalarini maktab ta'limiga tayorlash masalalariga doir tadqiqotlari bizning respublikamizda amalga oshirilgan ishlardir.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. SHaxsiy tayyorgarlik.

motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi.

Bilishga qiziqishning mavjudligi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish– o'quvchi bo'lish;

1. Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va

men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o'rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o'qish omili bo'lib xizmat qila oladi. "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman"- bunday motivlar to'g'ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo'la oladi.

#### 2. Intellektual tayyorgarlik.

Tevarak-atrofdan mo'ljal olish, bilimlar zaxirasining mavjudligi; idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi – narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. SHuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

#### 3. Harakat tayyorgarligi.

- mayda motorika;
- katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana)

#### 4. O'quv faoliyatiga tayyorgarlik:

kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish.

- topshiriqni mustaqil bajarish;
- chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, kon'kida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshita qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

**Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 274-278.
2. Кадилова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Makhmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Science and innovation*, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 8, 61-63.
9. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.
10. Makhmudova, D. M. (2023, January). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШДА INNAVATSIYON КИТОБЛАРНИ АХАМИЯТИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
11. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).
12. Makhmudova, D. (2022). FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING AND SUPPORTING SMALL BUSINESS BY THE STATE. *Science and Innovation*, 1(7), 482-488.
13. Makhmudova, D. M. (2022). AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING  
Makhmudova, D. (2022). CHALLENGES AND PROSPECTS OF SMALL BUSINESS MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY. *Science and Innovation*, 1(7), 451-461.
14. Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Zone* (pp. 225-226)